

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Sirtqi bo'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqoladan, ta'lim tizimining samaradorligi jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi omilligi asnosida ta'lim tizimidagi pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda muzey pedagogikasining ijobiy ahamiyati, uning kelib chiqish tarixi hamda bo'lajak o'qituvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Muzeyshunoslik, eksponat, integratsiya, muzey pedagogikasi, virtual muzey, virtual ekskursiya, renessans.

Аннотация: В данной статье рассматривается положительное значение музейной педагогики, история ее зарождения, а также значение воспитания будущих учителей в духе патриотизма, наряду с педагогическими технологиями в системе образования, как фактора, определяющего развитие музейной педагогики общества, эффективность системы образования рассматривается.

Ключевые слова: музеология, экспонат, интеграция, музейная педагогика, виртуальный музей, виртуальный тур, ренессанс.

Abstract: In this article, the positive value of museum pedagogy, the history of its origin, and the importance of educating future teachers in the spirit of patriotism, along with pedagogical technologies in the educational system, as a factor that determines the development of the society, the effectiveness of the educational system considered.

Keywords: museology, exhibit, integration, museum pedagogy, virtual museum, virtual tour, renaissance.

O'quvchiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg'ulotlarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi. Ruhshunoslarning aniqlashicha, bolalar o'qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma'lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o'zlari mulohaza yuritib mustaqil bajargan ishlari vositasida o'zlashtirilgan bilimlarini uzoq esda saqlab qoladilar. Chunki o'quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko'rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko'plab o'quv materiallarini hayolidan o'tkazadi.

O'xshash hodisalarni taqqoslaydi. O'zicha mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi. O'qituvchilarning tayyor holda bergan ma'lumotida esa o'quvchi fikrlash faoliyati to'la ishga kirishmasdan to'g'ri javobni o'zlashtirib oladi. O'xshash hodisalarga duch kelishi bilan o'qituvchi bergan bilimni amaliyotga taqbiq qilishda qiynalib qoladi. Davlat ta'lim standarti va amaldagi maktab dasturlarida o'quvchi egallashi lozim bo'lgan materiallar ancha murakkab bo'lib, bolalarning bu bilimlarni bosqichma-bosqich egallab olishlarini, kengaytirib va rivojlantirib borishlarini taqozo etadi.

“O'z- o'zidan ayonki, yangi davlat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni xalq etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarni tayyorlash masalasi muhim prinsipal va hal qiluvchi ahamiyatga ega.”,- deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.[1]

Yangi davlat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni xalq etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarni tayyorlashda xalq pedagogikasi manbalari asosiy vositalardan biri xisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda insoniyat taraqqiyotida avloddan-avlodga ko'chib, tarix sinovlaridan o'tib kelayotgan umuminsoniy va madaniy-ma'naviy qadriyatlar, milliy an'analar, axloqiy omillar va urf-odatlar muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Chunki ular xalqning jamoa ijodkorligining mahsuli bo'lib, insonlarning talab-ehtiyojlari zahirida aql-zakovat bilan yaratilgan, ularning tasavvuri, dunyoqarashi, tafakkuri, orzu-armonlari, e'tiqodi va axloq-odob qoidalarini o'zida mujassam etgan, jamiyatning ma'naviy-madaniy rivojiga katta hissa qo'shuvchi moddiy va ma'naviy boyligi bo'lgan.

Xalqning bu boyligi, birinchi navbatda asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan o'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari – qo'shiq, maqol, topishmoq, afsona, rivoyat, latifa, ertak, naql va dostonlarda o'z aksini topgan. Chunki ularda xalqning pedagogik g'oyalari, dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari, ma'naviy-axloqiy ideallari o'ziga xos yo'sinda aniq, ibratli va qiziqarli tasvirlangan, hikoya qilingan voqea-hodisalarda o'rnak bo'ladigan o'gitlar berilgan, xalqning hayotiy tajribasi, milliy an'analari, urf-odatlari va falsafasi bayon etilgan. Xalq og'zaki ijodi asarlari badiiy jihatdan yuksak takomilga ega ekanligi, tinglovchilarning, ayniqsa, yosh bolalarning oson tushunishiga, idrok etishiga qulayligi tufayli xalq pedagogikasining eng muhim, ko'p qamrovli va tarbiyaviy ta'siri g'oyat kuchli

tarmog‘i hisoblanadi. Chunonchi, maqollar xalqning ijtimoiy, iktisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari, hayotiy kuzatishlari asosida vujudga kelgan fikrlarni lo‘nda, aniq va obrazli ifodalovchi bir vosita bo‘lsa, naqlar hayotiy tajribalari, nasihatimiz fikrlari, donishmandligi, axloq qoidalariva falsafasini sodda syujet, ibratli mazmunda ifodalovchi hikoyalardir. Ertaklar esa falsafa, axloq, din, badiiy to‘qima va hayototga asoslangan xalq donishmandligining mahsulidir. Shu bois ertakdagi to‘qima voqea-hodisalar silsilasida xalqning ma‘naviy qadriyatlarini, urf-odatlarini, axloq-odobning o‘ziga xos milliy xususiyatlarini namoyon bo‘ladi. Rivoyatlar ham asosan ijtimoiy-maishiy voqealarni, tarixiy shaxs va hodisalarni uydirmalar vositasida bayon etuvchi kichik xajmli hikoyalar bo‘lib, ularda lutf va nazokat, aql va idrok, ishq va vafo, adolat va sahovat, vatanparvarlik va mehnatsevarlik madh etiladi, zulm va zo‘rluk, xaqizlik va bosqinchilik qoralanadi.

Ma‘lumki, har xil ijodiy ishlar uchun kerak bo‘ladigan tasavvurni o‘shishiga xalq ertaklarining boy fantastikasi yordam beradi. Shuni hisobga olgan o‘qituvchilar undagi voqea va hodisalarni hayotga bog‘laydi. Fantaziyaning sirini bolalarga tushuntiradi. Ya‘ni o‘quv yili davomida o‘quvchilar tabiatdagi o‘zgarishlarni doimiy ravishda kuzatib boradi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan ekskursiya darslarini o‘tkazadi.

Xalqning ma‘naviy ruhini musaxkamlash va rivojlantirish O‘zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Boshlang‘ich sinfda xalq og‘zaki ijodi shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyotning ulkan oilasida o‘z musaqilligini tushunib etisg va ozodlik sevishtuyg‘usini bilan birgalikda etilgan. Xalqimiz yaratgan qo‘shiqlari insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o‘giti bilan birga singadi. Bular orqali kitobxonlikni madaniyatini yuksaltirish mumkin.

Tarixga murojaat qilar ekanmiz bu xalq zotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz kishi bo‘lmaganidek, o‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi xam bo‘lmaydi.

Ona zaminimizda yashayotgan har bir inson ushbu ishni o‘qib chiqib, tariximizga, Vatanimiz, O‘zbekistonimiz ega bo‘lgan kuch qudratga, boyliklarga va xalqimiz yaratgan ijodlariga fikran nazar tashlab, shubxasiz, iftixor hissini boshidan kechiradi.

Ayni chog‘da men, ana shu hissiyot nilan birga, har bir xalqimizga, o‘z mehnati bilan jonini fido qilib, mamlakatning moddiy va ma‘naviy boyliklarini, kuch-qudratini yaratgan va yaratayotgan kishilarga samimiy minadorchlik tug‘ularni his etishimizni juda-juda isar edim.

Men xalqimiz yaratgan qo‘shiqlar orqali bolalarga ta‘lim-tarbiya berish qay darajada ahamiyatli ekanini va ulardan foydalanib bola kamoloti shakillantirish lozim. Chunki qo‘shiqlar orqali xalqimizning og‘ir mehnati, yashash tarzi, axloq-odob normalari ko‘rsatib berilgan.

Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilyotgan islohatlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma‘naviyatining tiklanish, boy tarixiy merosimizning keng o‘rganilishi, an‘analarimizning saqlanish, madaniyat va san‘at, fan va ta‘lim rivoji bilan uzviy bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev-Buyuk kelajagimizni nard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent:O‘zbekiston 2017
2. Hamrayev M. “O‘zbek tilidan ma‘ruzalar majmuasi”. Toshkent, 2010-yil.
3. Xojiyev A. “O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari”. Toshkent, “Fan”, 2010-yil.
4. Umarova H. “Qiziqarli grammatika” Toshkent, “Halq merosi”, 2002-yil.
5. To‘xliyev B, Yusupova Sh, Haqberdiyeva Z. “Yuksak ma‘naviyatli shaxs tarbiyasi” Toshkent, 2010-yil
6. Internet manbalari.
7. Dilfuza, Xolmuminova. "THE ROLE OF MUSEUM PEDAGOGY IN THE FORMATION OF A SENSE OF PATRIOTISM OF FUTURE TEACHERS IN THE NEW UZBEKISTAN." *Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions* 2.4 (2024): 48-51.
8. Dilfuza, Xolmuminova. "THE IMPORTANCE OF IMPROVING THE PEDAGOGICAL ABILITIES OF TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN AN INTEGRATIVE DIRECTION." *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.4 (2024): 37-40.
9. Umarov, Ilhom, and Dilfuza Xolmuminova. "FE‘L SO‘Z TURKUMINI O‘TISHDA O ‘YIN-TOPSHIRIQLARNING O ‘RNI." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.4 (2023): 34-37.